

ZULFIYAXONIM SHE'RIYATI

*Samarqand davlat chet tillar instituti
Narpay xorijiy tillar fakulteti MBT
Yo'nalishining 2-bosqich talabasi
Murodova Hilola*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada shoira Zulfiya she'riyati haqida ma'lumot beriladi. Shoira Zulfiya she'rlarining mavzu ko'lami, obrazlar olami tahlil qilinadi. Shuningdek, shoira Zulfiyaning poetik timsol yaratish maxorati she'rlari tahlili orqali oydinlashtiriladi.*

Аннотация: *В данной статье представлена информация о поэзии поэтессы Зульфийи. Анализируется предметный объём стихотворений поэтессы Зульфийи мир образов. Это также выясняется посредством анализа стихотворений поэтессы Зульфийи создания поэтического образа.*

Abstract: *This article provides information about the poetry of the poetess Zulfiya. The scope of the theme and the world of the images in the poems of the poet Zulfiya are analyzed. The poet Zulfiya's mastery of creating a poetic image is also clarified through the analysis of her poems.*

Kalit so'zlar: *Zulfiya, hayoti va ijodi, "Nilufar", tarjimon, libretto, "Zulfiya" nomidagi davlat mukofati.*

Ключевые слова *Зульфийа, жизнь и работа, "Нилуфар", переводчик, либретто государственная награда имени "Зульфийи".*

Key words: *Zulfiya, her life and creativity, "Nilufar", translator, state award named after "Zulfiya".*

"Zulfiya" nomi bilan tanilgan o'zbekistonlik shoira, juranalist, tarjimon, jamoat arbobi Zulfiya Isroilova 1915-yil bahor faslining ilk kunida ya'ni 1-mart kuni Toshkent shahrining qadimiy Degrez mahallasida tavallud topgan. Avval boshlang'ich maktabda, so'ng xotin-qizlar bilim yurtida tahsil olgan. 1935-1938-yillarda O'zbekiston fanlar akademiyasining til va adabiyot instituti aspiranturasida o'qigan. Shundan keyin turli nashriyotlarda ishlagan. Respublikamizda keng tarqalgan "Saodat" nomli xotin-qizlar jurnalida 1935-yildan 1980-yilgacha bosh muharrir bo'lib ishlagan. Zulfiyaxonim Isroilova Hamid Olimjon bilan birga turmush qurgan. Biroq ular orzularga to'la hayot kechirayotgan pallada 1944-yilda mashina halokati tufayli turmush o'rtog'idan ayrildi. Shoira badiiy ijodga juda erta kirishadi, 17 yoshida "Hayot varaqlari" deb atalmish dastlabki she'riy kitobini chop ettirdi. Uzoq ijodiy umri davomida 30 ga yaqin she'riy to'plamlar, 10 dan ortiq dostonlar yaratdi. Shoira hammani birdek o'ylantiradigan, barcha kishilarga daxldor bo'lgan holatlarni she'rga solidi. Zulfiyaxonimning ulkan iste'dodi faqat yurtimizdagina emas, balki dunyo miqyosida e'tirof etilgan. U xalqaro "Nilufar", Javoharlal Neru nomidagi hamda Davlat mukofotlarining sohibasidir.

Shoira she'rlarining el aro mashhurligi tasodifiy emas. U bolaligidan olamga hayrat ko'zi bilan qarovchi, uning boshqalar ko'rolmaydigan jihatlarni ilg'ovchi qizaloq ekanligi bilan jaralib turardi. Buning ustiga, oilasidagi muhit yosh Zulfiyada badiiy ijodga ishtiyoqini alanglatardi. Shoira bolaligini shunday eslaydi: "Otamni Isroil degrez der edilar. Otam zahmatkash temirchi edilar. Otamning hamma vaqt olovga yo'ldosh kasbidan faqat zavq ko'rar edim. Otamday qudratli inson yo'q edi men uchun. Temirlar otam qo'lida chaqmoqlar taratishga boqib, hayratda qolar edim. Uning qo'llari cho'g'ga aylangan temir parchasini istalgan shaklga solib, inson uchun kerakli narsaga aylantirishga qodir edi. Men hali hanuz otamday bo'lishni orzu qilaman, ammo nailoj inson qalbiga kira bilish temirga ishlov berishdan mashaqqatliroq, yurakni chaqmoq kabi alanga oldirish har kimga ham muyassar bo'lavermas ekan... Mening onam o'zing ta'bicha, "usti butun-ichi tutun" ayollardan edi. U hamma vaqt kamgap, hayolchan edi, lekin fikrlari, o'ylari mudroq emasligini, unga mutelik, zaiflik yot ekanligini bilar edim. Ruhidagi ma'yuslik, ovozidagi hazinlik faqat uning harakteriga xos bir sifatgina edi xolos. Onamning qancha-qancha qo'shiq va afsonalarini, doston va ertaklarini bilishiga aqlim bovar qilmasdi. Bu sehrli afsona va ertaklar bizga benihoya huzur bag'ishlar, o'ziga rom qilib olar, har safar yangi jilva kasb etar edi. Aminmanki, mo'jizalar yaratishga qodir, jahonni ko'zga keng ochuvchi, insonni go'zallik sari yetaklovchi so'zga shaydolik hissini mening qalbimda ostonaga hatlab ko'chaga chiqmagan oddiy ayol- onam uyg'otgan..."

Xalq orasida "Oydinda", "Sensiz", "Yurak", "Falak", "Bahor keldi seni so'roqlab", "O'g'irlamang qalamim bir kun", "Bo'm-bo'sh qolibdi bir varaq qog'oz" kabi she'rlari, "O'g'lim, sira bo'lmaydi urush", "Mushoira" kabi she'rlari mashhur. "Uni Farhod der edilar", "Quyoshli qalam", "Xotiram siniqlari" kabi lirik va liro-epik dostonlar muallifi. 1935 yilda shoir Hamid Olimjon bilan turmush qurgan va uning bevaqt vofotidan so'ng ko'plab mahzun she'rlar yaratgan. Uning ko'p she'rlarida vatanparvarlik, xalqiga bo'lgan muhabbat kabi mavzular ilgari surilgan. Uning shunday she'rlaridan bir parcha keltirib o'taman:

*O'zing tashna etding, o'zing suv tutding,
Qalbimdagi sahrom, daryomsan, xalqim!
Seni seva-seva men boyib ketdim.
Dunyo ichra topgan, dunyomsan, xalqim!*⁹

U tomonidan, shuningdek, o'zbek bastakorlarining operalariga librettolar ham yozilgan, masalan, "Zaynab va Omon" operasiga libretto. Shu bilan birga, turmush o'rtog'i Hamid Olimjon qalamiga mansub "Semurg'" dostoni mavzusi asosida, ertak-sahna asarini ham yozgan.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov shoira Zulfiya ijodi va shaxsiyatiga juda yuksak baho beradi: "Nafaqat o'z she'rlari, balki butun hayoti bilan o'zbek

⁹ Zulfiya Isroilova. "Bahor keldi seni so'roqlab", "Yangi asr avlodi", 2015.

ayolining ma'naviy qiyofasini namoyon etgan atoqli shoiramiz Zulfiyaxonimni ham ming fidoiy insonlar qatoriga qo'shgan bo'lardim"¹⁰

Zulfiya, mamlakatimiz Birinchi Prezidenti aytgani kabi: "Uning jahon minbarlaridan yangragan she'rlari Sharq ayolining aql-u zakosi, fazlu kamolining yorqin ifodasi sifatida millionlab she'riyat muxlislariga odamiylik, muhabbat va sadoqatdan saboq bergan..." shaxsiyat egasidir. Shuning uchun ham u faqat o'z shaxsiy hayoti qobig'ida qolishi mumkin emas edi. Shoira ayriliqdan o'zga hayotiy yo'nalishlarda ko'plab sevgi she'rlari, dostonlar, poetik manzaralar yaratgan ijodkordir. Darhaqiqat, betakror shaxsiyat egasi bo'lgan shoira Zulfiya ta'sirchan she'riyati bilan uzoq yillar millat yoshlariga sadoqat saboqlarini berishda davom etaveradi.¹¹

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, Zulfiyaxonim o'zbek she'riyatida o'ziga xos o'ringa ega shoira bo'lishi bilan birga inson sifatida ham shu xalqning barcha olijanob xislatlariga ega ayol bo'lgan. Bugun shu maqolani yozish va Zulfiyaxonimni ijodiga chuqurroq nazar solish orqali yana bir karra amin bo'ldimki, o'zbek adabiyoti XX asrda har qancha ziddiyatli, mashaqqatli va murakkab yo'lni bosib o'tgan bo'lmasin, unda bir qator tom ma'nodagi ijodkorlar etishib chiqqan va ularni ichidagi porloq yuzluzlardan biri bu Zulfiyaxonim bo'lgan. Bugungi istiqlol kunlarida ularning ijodlari yangi qirralari bilan namoyon bo'lmoqda. Zulfiyaxonimning hayoti va ijodi barcha xotin-qizlar uchun ibrat. Negaki, uning hayotidagi mehnatsevarligi, doimo olg'a intilishi, sevgi bobida sadoqatli yor ekanligi, badiiy ijod borasida tinimsiz izlanuvchanligi hamda hayot qiyinchiliklarida esankiramasligi, erishilgan yutuqlar oldida o'zini yo'qotmasligi har qanday qiz yoki ayol qalbida havas uyg'otadi.

Zulfiya nomidagi davlat mukofoti – O'zbekiston Respublikasining Davlat mukofotlaridan biri. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta'sis etish bo'yicha takliflarini qo'llab-quvvatlash tog'risida" 1999-yil 10-iyundagi farmoniga binoan ta'sis qilingan. Zulfiyaning olijanoblik, jasorat, haqqoniy xalq g'ururi, tabiat va insonga nisbatan samimiy tuyg'ular va hurmat, boy ranglar va kutilmagan yangi timsollar bilan bajarilgan lirikasi, kitobxon qalbini larzaga keltiradi, insoniyatning kelajakka bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Iqtidorli shoira va yozuvchi, inson qalb tug'yonlarini o'tkir bilimdoni bo'lib, turli janrlarda asarlar yaratgan: dostonlar, balladalar, elegiyalar, nasriy she'rlar, hikoyalar, ocherklar, publististik maqolalar va gazeta xabarlar. Uning ko'p she'rlari SSSR xalqlari tinchligi va do'stligi sari kurashga bag'ishlangan edi. Urush yillari u vatanparvarlik she'rlarini yozgan. Zulfiya she'riyati ana shunday pokiza buloqlardan suv ichgan ijoddir. Ayni shu sababdan uning tinchlik haqidagi, inson ruhiya-tini g'ajib tashlay oladigan hijron to'g'risidagi, tabiatning ajib bir holati borasidagi she'rlari hech kimni befarq qoldirmaydi. Shu bois shoiraning barcha ayollarga, barcha onaiarga, barcha

¹⁰ Islom Karimov. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch", Toshkent. "Ma'naviyat", 2008.

¹¹ Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" nomli asarini oliy ta'lim muassasalarida o'qitish texnologiyasi. "Info Capital Group", 2011.

ma'shuqalarga xos, tushunarli, anglanarli bo'lgan she'riyati aslo eskirmaydi. Uning asarlarida halol inson tuyg'ularining porloq yulduzi charaqlab turadi.

Zulfiya Isroilova turmush o'rtog'ining vafotidan keyin hech kim bilan turmush qurmasdan, yolg'iz ikkita farzandini voyaga yetkazdi. Biz bundan ko'rishimiz mumkinki, haqiqiy muhabbat va sadoqatli ayol timsolini. Zulfiyaning "Sen qaydasan, yuragim" she'ri Hamid Olimjon vafotidan bir yil o'tgach yozilgan bo'lib, unda hijron o'tida qovurilayotgan alamiyda ayolning tuyg'ulari yorqin aks ettirilgan. O'quvchini she'rning ohangi o'ziga jalb etadi. Mazmuni g'amdan iboat she'rning ohangi ham g'amgin. Bu ohangda adoqsiz g'am og'ushidagi shoiraning shikasta ovozi, yuqsil ruhi aks etadi. Hazin ohang o'quvchi tuyg'ulari ko'zini ochib, she'r ruhini tuyishini osonlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zulfiya Isroilova. "Bahor keldi seni so'roqlab", "Yangi asr avlodi", 2015.
2. Islom Karimov. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch", Toshkent. "Ma'naviyat", 2008.
3. Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" nomli asarini oliy ta'lim muassasalarida o'qitish texnologiyasi. "Info Capital Group", 2011.